



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI**  
**2 - TOM, 2 - SON. 2026**  
**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

UO‘K 616.98:579.841.93-036.22

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BRUTSELLYOZ KASALLIGINING 2025-YILDAGI  
EPIDEMIOLOGIK HOLATI TAHLILI VA 2026-YIL UCHUN BASHORATLASH  
KO‘RSATKICHLARI**



**Bazarova Gulnora Rustamovna**

Tibbiyot kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari doktori (DSc)  
Alfraganus University, Toshkent, O‘zbekiston  
e-mail: [g\\_bazarova@mail.ru](mailto:g_bazarova@mail.ru)  
<https://orcid.org/0000-0002-7277-2224>



**Yusupov Akmal Po‘latovich**

Tibbiyot kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Alfraganus University, Toshkent, O‘zbekiston  
e-mail: [akmal.yusupov.1989@mail.ru](mailto:akmal.yusupov.1989@mail.ru)  
<https://orcid.org/0009-0007-4167-5433>

**Annatatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2025-yil davomida brutsellyoz infeksiyasining tarqalish dinamikasi va epidemiologik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan hamda olingan natijalar asosida 2026-yil uchun kasallanish darajasi bashorat qilingan. Tadqiqotda infeksiya manbalarining tarkibi, yuqish yo‘llarining ustuvorligi va kasallanganlarning ijtimoiy-kasbiy guruhlari bo‘yicha joriy holat ko‘rib chiqilgan. Statistik ma‘lumotlar va epidemiologik tendensiyalarni o‘rganish asosida 2026-yilda kasallikning uchrash ehtimolligi va o‘choqlarning shakllanish tendensiyalari ilmiy asoslab berilgan. Bashoratlash ko‘rsatkichlari kelgusi yilda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni rejalashtirishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** brutsellyoz, epidemiologik tahlil, infeksiya manbai, yuqish yo‘llari.

**Dolzarbli.** Brutsellyoz zoonoz kasalliklar guruhiga kiruvchi, odam va hayvonlar orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik asosan qishloq xo‘jaligi hayvonlari — qo‘y, echki va qoramollar orqali odamga yuqadi hamda alimentary va kontakt yo‘llar orqali tarqaladi. Brutsellyoz ko‘pincha chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi orasida uchrab, ularning mehnat faoliyatiga, sog‘lig‘iga hamda ijtimoiy-iqtisodiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda brutsellyoz nafaqat veterinariya, balki jamoat salomatligi uchun ham muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har yili yuz minglab brutsellyoz holatlari qayd etiladi, ayrim mamlakatlarda esa kasallik endemik xususiyatga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston ham brutsellyoz keng tarqalgan hududlar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida brutsellyozning epidemiologik holati hududlar kesimida notekis taqsimlangan bo‘lib, ayrim viloyatlarda kasallanish darajasi yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Kasallikning odamlarga yuqishi ko‘pincha kasallangan chorva hayvonlari bilan bevosita muloqot qilish yoki zararlangan hayvon mahsulotlarini iste‘mol qilish bilan bog‘liq. Shu sababli brutsellyozning epidemiologik jarayonini chuqur o‘rganish, kasallanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda kelgusi yillar uchun epidemiologik prognoz tuzish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida brutsellyoz kasalligining 2025-yildagi epidemiologik holatini tahlil qilish, kasallikning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash va 2026-yil uchun bashorat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari brutsellyozga qarshi profilaktika choralarini takomillashtirish, kasallikning oldini olish hamda aholining sanitariya-epidemiologik xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston respublikasida brutsellyoz kasalligining 2025-yildagi epidemiologik holati tahlili va 2026-yil uchun bashoratlash ko‘rsatkichlari tahlil qilishdan iborat.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI**  
**2 - TOM, 2 - SON. 2026**  
**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

**Materiallar va uslublar.** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatidan 2025-yillardagi brutsellyoz infeksiyasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar retrospektiv tahlil qilindi va matematik chiziqli regressiya ( $Y=a+bX$ ) an’anaviy usulidan foydalangan holda 2026 yil uchun kasallanish ko‘rsatkichlari basharot qilindi.

**Olingan natijalar va ularning muhokamasi.** O‘rganilayotgan davr mobaynida hududlar kesimida kasallanish holatlari va laboratoriya tekshiruvlari natijalari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, jami 686 ta kasallanish holati qayd etilgan bo‘lib, ular hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan.

Hududlar kesimida kasallanish darajasi eng yuqori ko‘rsatkich bilan Buxoro viloyatida – 207 ta holatni tashkil etadi.

**1-jadval**

**Hududlar kesimida kasallanish ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Hudud</b>	<b>Mutloq soni</b>	<b>Ulushi (%)</b>
1	Toshkent shahri	5	0.73 %
2	Andijon viloyati	3	0.44 %
3	Buxoro viloyati	207	30.17 %
4	Xorazm viloyati	90	13.12 %
5	Qashqadaryo viloyati	106	15.45 %
6	Navoiy viloyati	27	3.94 %
7	Namangan viloyati	18	2.62 %
8	Samarqand viloyati	136	19.83 %
9	Surxondaryo viloyati	60	8.75 %
10	Sirdaryo viloyati	27	3.94 %
11	Toshkent viloyati	6	0.87 %
12	Farg‘ona viloyati	0	0 %
13	Xorazm (qo‘shimcha qatorda)	0	0 %
14	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1	0.15 %
<b>Jami</b>		<b>686</b>	<b>100 %</b>

Bu ko‘rsatkich umumiy kasallanishning sezilarli qismini egallab, mazkur hududda epidemiologik vaziyatga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Keyingi o‘rinlarda Samarqand viloyati (136 ta), Qashqadaryo viloyati (106 ta) hamda Jizzax viloyati (90 ta) qayd etilgan bo‘lib, ushbu hududlarda ham kasallanish darajasi nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi (1-jadval).

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatida 60 ta, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida 27 tadan, Namangan viloyatida 18 ta, Toshkent viloyatida 6 ta, Toshkent shahrida 5 ta, Andijon viloyatida 3 ta hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1 ta kasallanish holati aniqlangan. Shu bilan birga, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida mazkur davr mobaynida kasallanish holatlari qayd etilmagan. Ushbu natijalar hududlar o‘rtasida kasallanish darajasi sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida foiz ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda ulush nisbatan yuqori darajada qayd etilgan. Jumladan, Buxoro viloyatida 30,17 %, Samarqand viloyatida 19,83 %, Qashqadaryo viloyatida 15,45 % hamda Xorazm viloyatida 13,12 % ko‘rsatkich kuzatilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida 8,75 %, Navoiy viloyatida 3,94 %, Sirdaryo viloyatida 3,94 %, Namangan viloyatida 2,62 %, Toshkent viloyatida 0,87 %, Toshkent shahrida 0,73 %, Andijon viloyatida 0,44 % hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 0,15 % ko‘rsatkich aniqlangan.


Umuman olganda, ayrim hududlarda kasallanish holatlarining yuqori darajada qayd etilishi profilaktik chora-tadbirlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar kelgusida epidemiologik monitoring tizimini takomillashtirish va kasalliklarning oldini olish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotimizni keying bosqichida respublikamizda brutsellyoz bilan kasallanish darajasini aniqlash uchun 2015 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan davrda uzoq muddatli kuzatishlar asosida chiziqli



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI**  
**JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI**  
**2 - TOM, 2 - SON. 2026**  
**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

regressiya usulini qo‘llagan holda 20256 yil uchun bashoratlashni amalga oshirdik. Natijada kasallanishning kelgusi davr uchun yillik va oylik brutsellyoz bilan kasallanish prognozi aniqlandi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, Respublikamizda 2026 yil uchun prognoz 669 ta brutsellyoz holatini tashkil etdi (1-rasm). Shu bilan birga, yillik o‘shish tendensiyasini ko‘rsatadi (ishonchlilik koeffitsienti -  $R^2 = -0,01$ ).



**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida brutsellyoz bilan kasallanish ko‘rsatkichlarining ko‘p yillik dinamikasini tahlili va 2024-yil uchun prognozi.**

Ushbu usul yordamida brutsellyoz bilan kasallanish ko‘rsatkichlarini bashorat qilishning amaliyotga qo‘llanilishi, ushbu kasallikni o‘z vaqtida aniqlab, brutsellyoz o‘choqlarini lokalizatsiya qilish va tashxisoti, oldini olish hamda epidemiyaga qarshi tadbirlarni rejalashtirish imkonini beradi.

**Xulosalar:**

1. O‘rganilgan davr mobaynida respublikada brutsellyoz bilan kasallanish holatlari hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanganligi aniqlandi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Buxoro (207 ta – 30,17%), Samarqand (136 ta – 19,83%) va Qashqadaryo (106 ta – 15,45%) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelib, ushbu hududlarda epidemiologik vaziyat murakkabligicha qolmoqda.

2. Hududlar kesimidagi tahlillar Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida kasallanish holatlari qayd etilmaganligini, biroq qolgan hududlarda, xususan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida ham kasallanish darajasi nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

3. Chiziqli regressiya usuli yordamida amalga oshirilgan bashoratlash natijalariga ko‘ra, 2026-yil uchun respublikada brutsellyoz bilan kasallanishning prognoz ko‘rsatkichi 669 ta holatni tashkil etishi va yillik o‘shish tendensiyasi saqlanib qolishi aniqlandi.

4. Brutsellyoz bilan kasallanish ko‘rsatkichlarini matematik modellashtirish va bashorat qilish usullarining qo‘llanilishi, kasallik o‘choqlarini o‘z vaqtida aniqlash, profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ilmiy asoslangan holda rejalashtirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдразакова А.К., Тайчиев И., Муратов Ж.К., Турусбекова А.К. Эпидемиологическая характеристика бруцеллёза в Ошской области Кыргызской Республики // Вестник Ошского государственного университета. – Ош, 2021. – Т. 1, №5. – С. 5–11.

2. Алекешева Л.Ж., Қадыр А.М., Даниярова А.Б. Бруцеллөз жүкпасының эпидемиологиясы 2017–2018 жж. бойынша // Вестник казахского национального медицинского университета. – Астана, 2020. – №1. – С. 408–413.

3. Атаходжаева Д.Р. Болаларда бруцеллөз клиник-иммунологик ҳолатининг ўзига хослиги ва унинг коррекцияси // Автореф. дис. ... кан. мед. наук. (PhD). – Тошкент, 2019. – Б. 12–30.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI  
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI**

**2 - TOM, 2 - SON. 2026**

**14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740**

4. Ахмедова М.Д., Имомалиев У.Н., Косимов О.Ш. Иммунологическая эффективность препарата «Иммун-5» при различных формах бруцеллёза // Инфекция, иммунитет и фармакология. – Ташкент, 2006. – №6. – С. 20–23.
5. Жамбуршин М.К., Шумейко Ф.О. Эпидемиологические индивидуальности бруцеллёза // Novainfo.Ru. – М., 2021. – №126. – С. 122–125.
6. Gerilovych A.P., Stegnyy B.T., Vovk D.V. Risk analysis and molecular epidemiology aspects for emergent diseases of animals (African swine fever, brucellosis, avian influenza and Newcastle disease) // Journal for Veterinary Medicine, Biotechnology and Biosafety. – 2016. – Vol. 2(2). – P. 18–26.
7. Glynn M.K., Lynn T.V. Brucellosis // AVMA - Journal of the American Veterinary Medical Association. – 2008. – Vol. 233. – P. 900–908.
8. Gompo T.R., Shah R., Tiwari I., Gurung Y.B. Sero-epidemiology and associated risk factors of brucellosis among sheep and goat population in southwestern Nepal: a comparative study // BMC Veterinary Research. – 2021. – Vol. 17(1). – P. 132.
9. Gul S.T., Khan A., Rizvi F., Shahzad A., Ahmad M., Hussain I. Epidemiology of brucellosis at different livestock farms in the Punjab, Pakistan // Pakistan Veterinary Journal. – 2015. – Vol. 35(3). – P. 309–314.
10. Wang H., Liu H., Zhang Q., Lu X., Li D., Zhang H., Wang Y.A., Zheng R., Zhang Y., Fu Z., Lin K., Qiu C., Wang Y.O., Gu Y., Ai J., Zhang W. Natural history of and dynamic changes in clinical manifestation, serology, and treatment of brucellosis, China // Emerging Infectious Diseases. – 2022. – Vol. 28, №7. – P. 1460–1465.

